

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA NEYROLINGVISTIK KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Nazarmatova Yorqinoy Maxmudaliyevna

Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Tel: +99897 8085583

E-mail: yorqinoy479@gmail.com

Orcid: 0009-0006-3273-8773

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun neyrolingvistik kompetentligini shakllantirish va rivojlanirishning zamonaviy texnologiyalari yoritilgan. Neyrolingvistika asoslari, til va tafakkur o‘zaro bog‘liqligi, shuningdek, til o‘rganishda neyrotexnologiyalarning qo‘llanilishi haqida fikr yuritiladi. Tadqiqotda neyrolingvistik yondashuv asosida ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan uslublar, innovatsion metodikalar va interfaol mashg‘ulotlar orqali talabalar lisoniy kompetentligini samarali rivojlanirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: neyrolingvistika, kompetentlik, boshlang‘ich ta’lim, ta’lim texnologiyalari, til va tafakkur, innovatsiya, interfaol metodlar.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются современные технологии формирования и развития нейролингвистической компетентности у студентов направления начального образования. Освещаются основы нейролингвистики, взаимосвязь языка и мышления, а также применение нейротехнологий в изучении языков. На основе нейролингвистического подхода представлены методики, интегрированные в образовательный процесс, и интерактивные занятия, способствующие эффективному развитию языковой компетенции студентов.

Ключевые слова: нейролингвистика, компетентность, начальное образование, образовательные технологии, язык и мышление, инновации, интерактивные методы.

ABSTRACT

This article explores modern technologies aimed at developing neurolinguistic competence among students majoring in primary education. It discusses the foundations of neurolinguistics, the interrelation between language and thinking, and the use of neurotechnologies in language learning. The study presents methodologies integrated into the educational process based on the neurolinguistic approach,

focusing on innovative techniques and interactive activities that enhance students' linguistic competence effectively.

Keywords: neurolinguistics, competence, primary education, educational technologies, language and thinking, innovation, interactive methods.

KIRISH

Zamonaviy ta'lism tizimi talabalardan nafaqat an'anaviy bilim, ko'nikma va malakalarni, balki tafakkur, muloqot, nutq madaniyati, axborotni anglash va unga munosabat bildirish, ijtimoiy-psixologik moslashuv kabi ko'p qirrali kompetensiyalarni egallahni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lism yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar – kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari – uchun bu ko'nikmalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Chunki boshlang'ich maktab bosqichi bola shaxsining shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu bois bu yo'nalishdagi talabalarni tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalarni, xususan, neyrolingvistik dasturlashga (NLD) asoslangan yondashuvlarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalarida neyrolingvistik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish texnologiyalari, ularning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda ta'lism jarayoniga integratsiyalash tajribalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, NLD texnikalarining o'quv jarayonida qo'llanishi, ularning samaradorligi va talabalar shaxsiy rivojiga ta'siri xususida ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi. Maqola, ayni paytda, zamonaviy psixologik yondashuvlarni pedagogik amaliyot bilan uyg'unlashtirishga intilgan ta'limgichilarga nazariy va amaliy yordam berish maqsadini ham ko'zlaydi.

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) – bu inson tafakkuri, nutqi va xatti-harakatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan psixologik-amaliy metodologiya bo'lib, ta'lism jarayonida uni qo'llash orqali talabaning o'z-o'zini anglash, boshqarish, o'zini taqdim eta olish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish kabi shaxsiy va kasbiy jihatlari rivojlanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bo'lishga tayyorlanayotgan talabalar uchun bu kompetensiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular kelajakda kichik yoshdag'i o'quvchilar bilan nafaqat bilim, balki psixologik-madaniy aloqada bo'ladi.

MATERIAL VA METODLAR.

Neyrolingvistik kompetentlik – bu talabada axborotni ongli ravishda qabul qilish, uni qayta ishlash va adekvat ifoda etish, shuningdek, muloqotdagi noverbal (yuz ifodasi, ovoz ohangi, tana harakati) va verbal unsurlarni uyg'unlashtira olish qobiliyatidir. Bu kompetentlik turli ta'limiyl vaziyatlarda shaxslararo muloqotni samarali tashkil etish, o'quvchilarning ehtiyojlarini aniqlash va mos ravishda ta'sir

o'tkazish imkonini beradi. Shuningdek, bu ko'nikma, pedagogik faoliyatda zarur bo'lgan empatiya, o'quvchini tushunish, o'z fikrini aniq va tushunarli yetkazish, kommunikativ moslashuvchanlik kabi jihatlarni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi [2].

Hozirgi kunda ta'lim tizimi oldida zamonaviy psixologik fan yutuqlarini o'quv jarayoniga tatbiq etish muammosi keskin turibdi. Ushbu muammoning hal etilishi o'quvchiga umumiy o'rta ta'lim muassasasida qulay sharoit yaratish, ta'lim sifatini oshirish va uning keyingi ta'limidagi muvaffaqiyatni ta'minlash imkonini beradi. Zamonaviy psixologiya yutuqlari, xususan, insonlar bilan samarali muloqot qilish texnikalari, neyro-lingvistik dasturlash (NLD) nazariyasining tarkibiy qismi sifatida, hayotning turli sohalariga: siyosat, biznes, ommaviy axborot vositalariga chuqr kirib bordi. Bunday ta'sir tashabbuskorlari allaqachon axborot vositalari orqali, ayniqsa, o'sib kelayotgan avlod ongiga va ongsiz ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [1].

Har xil usullar orqali uzatilayotgan axborot hajmining keskin ortib borishi natijasida, o'quv muassasasida bolaga berilayotgan o'quv ma'lumotlari tobora kamroq ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi bir xil faktning o'qituvchi va OAV (ayniqsa, televide niye) tomonidan turlicha talqin etilishi natijasida ko'proq OAV versiyasiga ishonch bildiradi. Bundan tashqari, OAV orqali uzatilayotgan ma'lumotlar ko'pincha manipulyativ maqsadlarni ko'zlab, subyektiv tusga ega bo'lib, zararli "ta'lim" sifatida namoyon bo'lmoqda.

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida neyrolingvistik kompitentligini rivojlantirish texnologiyasini tadqiq etishga qaratilgan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, qiyosiy tahlil kabi metod va usullaridan samarali foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

O'quvchining o'zini-o'zi rivojlantirish mexanizmlarini ta'minlash uchun o'qituvchi ilgari to'plangan empirik va nazariy tajribalardan foydalanishi mumkin. Bunday tajriba, amaliy psixologyaning yo'nalishi sifatida shakllangan neyrolingvistik dasturlashda (NLD) o'z ifodasini topgan. NLD bugungi kunda o'zining samaradorligini ko'rsatib, hayotning deyarli barcha jabhalariga kirib bordi, endilikda esa ta'lim tizimiga ham joriy etilmoqda. NLDning keng imkoniyatlarini hisobga olib, uni o'qitish jarayoniga moslashtirish, uni aksariyat o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan texnikalar tizimiga aylantirish, shuningdek, uning samaradorligini eksperimental jihatdan isbotlash zarurati mavjud [3].

Bu rejani amalga oshirish uchun zaruriy asoslar mavjud. NLD bundan 30 yildan biroz ortiqroq vaqt avval AQShning Santa-Kruz universitetida paydo bo'lgan. NLD asoschilari Jon Grinder va Richard Bandler hisoblanadi. Ularning tadqiqotlari

mashhur amaliy psixoterapevtlar — Frits Perls, Virjiniya Satir va Milton Erikson ishlari asosida olib borilgan. Ularning ishlari asosida Grinder va Bandler insonning ruhiy jarayonlarini tavsiflovchi NLD modelini yaratdilar va bu model turli sohalarda muvaffaqiyatga erishish sxemalarini taklif etdi.

NLD odamlarning qanday fikrashi va dunyoni qanday qabul qilishi strukturasini o‘rganadi. NLDning mohiyati insonning individual subyektiv tajribasini uning tashqi xatti-harakatlari bilan moslashtirishdan iborat bo‘lib, bu uni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda qo‘llash imkonini beradi. O‘quv jarayoniga moslashtirilgan, texnika darajasiga yetkazilgan NLD o‘quv natijalarini oshirish, o‘quvchining subyektiv tajribasini boyitish, ularning xatti-harakatlarini modellashtirish, shuningdek, ularning mas’uliyat va shaxsiy yetuklik darajasini oshirishga xizmat qiladi [4].

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida talabalarni kompleks shakllantirish, ya’ni ularning faqatgina bilim emas, balki kommunikativ, axborotli, ijtimoiy va psixologik kompetentliklarini ham rivojlantirishdan iboratdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun neyrolingvistik kompetentligni shakllantirish muhim pedagogik masala hisoblanadi. Bu kompetentlik o‘quvchining ichki psixologik holati, nutqiy faoliyatni va tashqi muhit bilan o‘zaro muloqoti o‘rtasida uyg‘unlikni ta’minlaydi.

Neyrolingvistik kompetentlik deganda, talabada axborotni idrok etish, uni ongli tahlil qilish, emotsional-muloqot vositalarini to‘g‘ri qo‘llash, nutq strukturasi va kommunikatsiya jarayonini samarali boshqarish qobiliyatlarining uyg‘unlashuvi tushuniladi. Ushbu kompetentlik talabaning shaxslararo muloqotdagi muvaffaqiyatini, pedagogik faoliyatda o‘z fikrini aniq, ravon va ta’sirli ifoda etishini, o‘quvchilarning psixologik holatlarini tushunib yetishini ta’minlaydi [5].

Neyrolingvistik dasturlash (NLD) – bu inson ongingin tuzilmasi, uning nutqi va xulq-atvori o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadigan zamonaviy metodologiyadir. Bu metod orqali o‘qituvchi talabaga o‘zining ichki salohiyatini anglash va uni ta’lim jarayonida ongli ravishda qo‘llash imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bo‘lishga tayyorlanayotgan talaba uchun bu yondashuv juda muhim, chunki bu bosqichdagi o‘quvchilarning idroki, emotsional holati va ta’limga bo‘lgan munosabati ustozining kommunikatsion yondashuviga bog‘liq bo‘ladi.

Neyrolingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Diagnostika – talabalar shaxsiy va psixologik xususiyatlarini aniqlash;

Modellashtirish – o‘quvchi shaxsini, nutq va xatti-harakatlarining namunalarini aniqlab, samarali model yaratish;

Mashq va treninglar – kommunikativ texnikalar, til vositalari, tana tili, ovoz ohangi va verbal bo‘lmagan muloqot vositalarini shakllantirish;

Refleksiya va tahlil – talabaning o‘z faoliyatini anglash, natijani baholash va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish [6].

Ushbu texnologiya asosida o‘qitilgan talabalar o‘z nutqiy faoliyatida ishonchli va ta’sirchan bo‘lishadi, o‘quvchilar bilan samarali aloqa o‘rnata olishadi, dars jarayonini psixologik jihatdan sog‘lom muhitda olib borish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Neyrolingvistik kompetentlig talabaning liderlik fazilatlarini rivojlantiradi, o‘zini taqdim etish, ijtimoiy rollarni anglash, emotsiyal barqarorlik va stressga chidamlilik darajasini oshiradi [7].

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida ta’lim oluvchi talabalarda neyrolingvistik kompetentligni shakllantirish – zamonaviy o‘qituvchi shaxsini yaratishda muhim qadamdir. Buning uchun esa innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish, NLD asosidagi trening va modellarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash zarur. Bu nafaqat ta’lim samaradorligini, balki pedagog shaxsining ijtimoiy va professional tayyorgarligini ham yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Баева, И.А. Психологическая безопасность в образовании: Монография./ И. А. Баева. СПб.: СОЮЗ, 2002. - 271 с.
2. Бакиров, А. К. Базовые прессупозиции весело о важном, или с чего начинается НЛП./ А.К. Бакиров// Вестник НЛП. - 2000. - №4. - С. 45-50.
3. Барбитова, А.Д. Возможности использования нейро-лингвистического программирования в образовании. Ч. I. НЛП в обучении: учебно-методическое пособие/А. Д. Барбитова. Ульяновск: УИПКПРО, 2007. -104 с.
4. Барбитова, А. Д. Возможности использования нейро-лингвистического программирования как средства личностно ориентированного воспитания старшеклассников: дис. . канд. пед. наук: 13.00.01/ Анна Дмитриевна Барбитова.— Ульяновск, 2004. 217 с.
5. Леонтьев, А. Н. Психологические механизмы мотивации учебной деятельности./ А. Н. Леонтьев Новосибирск: ШЛИ, 1987. - С. 45-48.
6. Ливер, Б. Обучение всего класса./ Б. Ливер — М.: Новая школа, 1995.- 35 с.
7. Лисина, М. И. Общение, личность и психика ребенка./ М. И. Лисина Воронеж: Привязанность, 1997. - С.32.